

X-40

# ERNEST XEMINGUEY



ORLIQ VA YO'OLIK

OMAN H K I T O B



HONADABIY TI TURKUMIDAN







# JAHON ADABIYOTI TURKUMIDAN

•ERNEST XEMINGUEY

## BORLIQ VA YO'QLIK


*Roman va hikoyalari*

**2-kitob**



**ZIYO NASHR**

Toshkent  
2020



ISBN 978-9985-0-943-0-8

UO'K: 821.111(73)-31

KBK 84(7AQSh)

X 40

Tahrir hay'ati:

**Naim Karimov, Umarali Normatov, Erkin A'zam,  
Xurshid Do'stmuhammad, Suvon Meliyev,  
Shuhrat Sirojiddinov, Nurboy Jabborov, Dilmurod Quronov,  
Uzoq Jo'raqulov, Ulug'bek Hamdamov,  
Abdurahmon Jo'rayev**

Tarjimon:

**Qandilat Yusupova**

Nobel mukofoti sovrindori Ernest Xemingueyni tanimagan kitobxon bo'lmasa kerak. Yurtimizda ham Xeminguey ixlosmandlari nihoyatda bisyor.

Shularni hisobga olib, nashriyotimiz yozuvchining „Borliq va yo'qlik“ romanini siz aziz kitobsevarlarga taqdim etmoqda. Ikki jildli mazkur asarda muallif yashagan davrdagi jamiyatning kirli nuqtalari haqqoniy tasvirlangan.



NEGAN SYR

© Qandilat Yusupova (Tarj.).

ISBN 978-9943-6343-9-8

© „Ziyo nashr“ nashriyoti, 2020.

## NASHRIYOTDAN

Biz o'tgan mingyilliklar davomida jahon sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo'shgan, uni o'zgartira olgan xalqımız. Madaniyat, san'at, axloq, falsafa, fan va ədabiyot sohasida buyuk ajdodlarımız qoldirgan ulkan meros hali-hamon dunyoning barcha rivojlangan mamlakatlari tomonidan e'tirof etilib, o'rganib kelinadi. Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziyy, Burhoniddin Marg'iloni, Ahmad Farg'oniy, Muso al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Forobiy, Bahouddin Naqshband, Abullays Samarqandiy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Mahmud Koshg'ariy, Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Boborahim Mashrab singari yuzlab ajdodlarımız borki, biz ularni hech ikkilanmasdan jahon miqyosidagi mutafakkirlar deyishga haqlimiz. Ammo bugungi avlod ularning buyuk shaxsiyatı, tarixi, jahonshumul shon-shuhratı bilangina cheklanib qolmasligi lozim. Ajdodlarning madaniy, ma'rifiy, ilmiy, ijtimoiy, adabiy faoliyatı, hayot tarziga doimo hushyor nigoh va ibrat ko'zi bilan qarashimiz maqsadga muvofiq. Tarixiy manbalarni sinchiklab o'rganadigan bo'lsak, mutafakkir ajdodlarımız jahon madaniyatı, ilmiy va badiiy tafakkuri bilan doimiy tarzda hamqadam, hamnafas bo'lib kelganlar. Jahonda ro'y berayotgan birorta madaniy-intellektual o'zgarish, biror badiiy tafakkur namunasi bobolarımız nazaridan chetda qolmagan. Ajdodlarımız ularni o'qib, uqishar ekan, o'z milliy madaniyatlarini rivojlantirish, jahon xalqlaridan ortda qolmaslikni maqsad qilganlar. Ko'plab xorijiy tillarni bilganları, xorij mutafakkirları yozgan asarlarni tarjima qilganları bu o'rinda qo'l kelgan. Eng muhimi, xorij madaniyatı, badiiy-ilmiy tafakkuri namunalariiga nisbatan shaxsiy to'xtamlari, xulosalari va tanqidiy nuqtayı nazarları bo'lgan.

Bugun biz, mamlakatimiz Prezidenti kitobxonlik madaniyatini takomillashtirishni davlat siyosati darajasiga ko'targan bir paytda, o'tmishtda yashab o'tgan buyuk ajdodlarımız an'anasi izchil davom ettirishimiz, jahon madaniyatı, san'ati, adabiyoti namunaları bilan izchil va tizimli tarzda tanishib borishimiz zarur.

Xalqımız ijtimoiy-madaniy hayotidagi mana shunday ulkan ehtiyojni nazarda tutib „Ziyo nashr“ nashriyoti bir xayrli ishga qo'l urishga bel bog'ladi. Ya'ni joriy yıldan e'tiboran jahon nasri namunalarining yuz jildligini chop etishga kirishdi.

Mazkur nashrda siz turk, rus, ingliz, italyan, fransuz, nemis, hind, xitoy, arab, eron, yapon, amerika adabiyoti namunalari bilan tanishasiz. Yuz jildlikda Ch. Dikkens, L.N.Tolstoy, A. Dyuma, N.V.Gogol, O.de Balzak, A.P.Chexov, Gi de Mopassan, J. London, G. Flober, M. Sholoxov, G.G.Markes, A. Kuprin, V. Shukshin kabi siz muhtaram o'quvchiga nisbatan tanish yozuvchilar asarlari bilan birga, S. King, U. Folkner, V. Vulf, Mo Yang, Chan May Txyun, V. Losa Mario, T. Bug'ra, Alp Dundar, Dino Butssati, R. Akutagava, I. Bunin, K. Chandar, Abdul Muis, Y. Zamyatin singari jahon xalqlari tomonidan e'tirof etilgan-u, ammo o'zbek kitobxonlarining aksariyati ilk bor uchrashayotgan yozuvchilar asarlarini o'qishga tuyassar bo'lasiz.

Mazkur yuz jildlik jahon nasrining deyarli barcha janrlarini qamrab oladi. Unda siz jahon o'quvchilarini hayratga solib kelayotgan romanlar, qissalar, novella va hikoyalardan bahramandlik hissini tuyasiz.

Tarjimalar ichida Abdulla Qahhor, Zumrad, Odil Rahimiyy, Qodir Mirmuhamedov, Vahob Ro'zmatov, Ozod Sharafiddinov, Ibrohim G'afurovdek mashhur tarjimonlar o'girgan asarlar qatorida umidli yosh tarjimonlar ijodi namunalari ham o'rinn olgan. Albatta, tarjima asarlar tarkibida rus tili vositasida amalga oshirilganlari ko'proq. Bunda biz tajribali, mahoratli tarjimonlar o'girmalariga bo'lgan ishonch va hurmatni bosh mezon qilib oldik. Shu bilan birga, ingliz, fransuz, nemis, turk, arab, fors tillaridan qilingan original tarjimalarning mutaxassislar tomonidan tan olingen namunalarini ham qamrab olishga urindik. Eng muhimi, bu o'rinda badiiy tarjimalar sifati, milliy tilimiz jozibasini qanchalik aks ettirganiga asosiy e'tiborni qaratdik. Yuz jildlikni tayyorlash jarayonida imkon darajasida xalqimiz ma'naviyati va axloqiy o'lchamlariga muvofiq keladigan asarlarni tanlashga harakat qildik.

Ammo shuni alohida ta'kidlashni istardikki, „Jahon nasri namunalarini yuz jildligi“ni chop etish nashriyotimiz uchun ilk tajriba. Shunday bo'lgach, mazkur yirik loyihaning kamchiliklari, maromiga yetmagan jihatlari bo'lishi tabiiy. Bu jarayon muttasil davom etib, tajriba va mahorat, texnik imkoniyatlar oshgan sari kamchiliklar ham bartaraf bo'la borishiga ishonamiz. Va, umid qilamizki, xayrli niyat bilan boshlayotgan ishimizdagi juz'iy kamchiliklarni aziz kitobxonlarimiz ma'zur tutadilar. Muhtaram adabiyotshunoslarimiz, adiblarimiz va adabiyot muallimlarimiz keyingi nashrlarni amalga oshirish jarayonida o'zlarining qimmatli maslahatlarini ayamaydilar.

Yaratgan Alloh ishimizni xayrli, ajr-mukofotlarga loyiq, jonajon xalqimiz uchun manfaatlil qilsin!

## BORLIQ VA YO'QLIK

### 3-FASL

#### 10-bob

Albert bortda allaqachon shay turar, qayiq ham gaz bilan ta'minlangandi.

Men qayiqni bir yurgizib ko'ray-chi, bu qo'shaloq silindrning qanday ishlashini tekshirib ko'rmoqchiman, – dedi Garri. Hammasini rostlab qo'ydingmi?

– Ha.

– Unday bo'lsa xo'rak uchun biron nima topib qo'-yaylik.

– Sen kattaroq xo'rak istayapsanmi?

– Shunisi ma'qul. Baliq oviga.

Albert qayiq tumshug'ida xo'rak tutish bilan band ekan, motorning guvullashiga o'xshagan shovqinni eshitgan Garri endigina rul chambaragida turib, motorlarni qizdira boshlagandi. U ko'cha tarafga ko'z tashlab, bankdan otilib chiqqan bir erkakni ko'rdi. U yugurgilab kelar, qo'lida qurol bor edi. So'ngra u ko'zdan g'oyib bo'ldi. Shu payt ikki nafar erkak ham qo'llarida chog'roq charm jomadon va qurol tutgancha xuddi o'sha tomon chopib ketishdi. Garri xo'rak tutish bilan band bo'lgan Albertga qaradi. To'rtinchchi erkak, basavlat gavdalisi esa Garri ku-zatayotgan tobda bankdan tashqariga chiqdi, u Tompson qurolini ushlab turar, birozdan so'ng eshik orqasiga o'tib ketishi bilanoq bank ichida uzun, uzlusiz signal ovozi yangradi. Garri bo'lsa o'sha qurolning sakrab-sakrab,

sakrab-sakrab ketayotganligiga ko‘zi tushdi va bank signali fig‘oni ichida qisqa, ma’yus tovush – „bop-bop-bop“ ovozini eshitdi. Haligi erkak ortiga o‘girilib qaradi-da, yugurib ketdi, u bank eshigiga yana bir marta o‘q uzish uchun to‘xtagan chog‘da qayiq tumshug‘idagi Albert jonholatda baqira boshladi:

– Ey Xudoyim! Ular bankni o‘marishyapti! Yo Rab-bim, nima qildik endi?

Garri ko‘chaning bir tarafiga „Ford“ mashinasi ke-lib to‘xtaganini va uning dok uzra chayqalib turganini payqadi.

Mashina ichida, haydovchining orqasida uch nafar kubalik hamda yon tomonida bir odam bor edi.

– Qayiq qani? – chinqirdi ulardan biri ispanchalab.

– Ana, tentak, – uni urishib berdi boshqasi.

– U qayiq emas.

– Ana kapitan.

– Bo‘la qol! Xudo haqi, tezlat!

– Bu yoqqa chiq, – buyurdi bir kubalik haydovchiga qarata. – Qo‘llaringni tepaga ko‘tar.

Haydovchi mashina yonida tik turishi bilan bezorilar-dan biri kamari orasidan pichog‘ini chiqardi-da, haydov-chining kamarini tilimlab, kalta shiminil ilma-teshik qilib tashladi. – Shundoq tur, – dedi u. Xurjunlari bilan kelgan ikkita kubalik esa ularni kema kayutasiga irg‘itdi-da, bort ustiga bir amallab chiqib oldi.

– Keta qolaylik, – shoshiltirdi bittasi. Bahaybat biri esa quroli bilan orqasiga turtdi.

– Bo‘la qol, Kapi, – tipirchilardi u. – Qani, ketdik!

– O‘pkangni bos! – dedi Garri unga. – Yana ba‘zi yerlarni mo‘ljalga olib chiq.

– Manavi arqonlaringni qirq, – o‘shqirdi bahaybat bezori. – Senga aytyapman! – baqirdi u Albertga qarab.

— Bir daqqa sabr qil, Garri, — dedi Albert. — Qayiqni yurgiza ko'rma. Bular bank talonchilar.

Eng savlatli kubalik o'girilib, Tompson qurolini dast ko'tarib oldi-da, uni Albertga qarab o'qtaldi.

— Hey, unday qila ko'rma! Yo'q! — Albert dodlay boshladi. — Yo'q!

Zarba uning ko'kragiga shunchalik qattiq tushdiki, o'qlar uch martalab tovush chiqarib otilganday bo'ldi. Albert tizzalari bukilib, ko'zlar katta-katta ochilib, yerga sirpanib tushdi. U hamon „Yo'q! Yo'q!“ deb dodlayotgan-ga o'xshardi.

— Senga hech qanday o'rtoqning keragi bo'lmaydi, — bahaybat kubalik safsata sotardi. — Sen cho'loq qo'lli o'g'il bolasan. So'ngra ispanchalab: — Anavi arqonlarni mana bu pichoq bilan qirqib tashla, — deb buyurdi. So'ng ingliz tilida: — Bo'la qol endi. Qani, ketdik, — deb qistalang qildi.

Shundan keyin yana ispanchalab: — Uning orqasiga qurolni tirang! Inglizchalab esa: — Bo'l deyapman. Qani ketdik. Bo'lmasa manglayingdan darcha ochib qo'yaman! — deya dag'dag'a qila ketdi.

— Ketamiz, — dedi Garri. Bir hindubashara kubalik esa uning cho'loq qo'li oldida pistoletini o'qtalib turardi. Qurolning uchi qo'lga deyarli tegay deb qolgandi.

Garri qayiqni o'rnidan siljitib, sog' qo'li bilan rul chambaragini aylantirar ekan, ehtiyyot yuzasidan atrofni kuzatdi, shu lahzada tizzalari bukilib, boshi esa kemanning yon tomoniga tiralib yotgan Albertga ko'zi tushdi. Dok ustida bo'lsa „Ford“ taksi va shimining to'piq atrofi yelviragan, qo'llarini boshi uzra ko'targan, og'zini xuddi Albertday ochgancha ich kiyimlarida shumshayib turgan semiz haydovchi qolgandi. Ko'chada hamon zog' uchmasdi.

sakrab-sakrab ketayotganligiga ko‘zi tushdi va bank signali fig‘oni ichida qisqa, ma’yus tovush – „bop-bop-bop“ ovozini eshitdi. Haligi erkak ortiga o‘girilib qaradi-da, yugurib ketdi, u bank eshigiga yana bir marta o‘q uzish uchun to‘xtagan chog‘da qayiq tumshug‘idagi Albert jonholatda baqira boshladi:

– Ey Xudoyim! Ular bankni o‘marishyapti! Yo Rab-bim, nima qildik endi?

Garri ko‘chaning bir tarafiga „Ford“ mashinasi ke-lib to‘xtaganini va uning dok üzra chayqalib turganini payqadi.

Mashina ichida, haydovchining orqasida uch nafar kubalik hamda yon tomonida bir odam bor edi.

- Qayiq qani? – chinqirdi ulardan biri ispanchalab.
- Ana, tentak, – uni urishib berdi boshqasi.
- U qayiq emas.
- Ana kapitan.
- Bo‘la qol! Xudo haqi, tezlat!
- Bu yoqqa chiq, – buyurdi bir kubalik haydovchiga qarata. – Qo‘llaringni tepaga ko‘tar.

Haydovchi mashina yonida tik turishi bilan bezorilar-dan biri kamari orasidan pichog‘ini chiqardi-da, haydov-chining kamarini tilimlab, kalta shiminilma-teshik qilib tashladi. – Shundoq tur, – dedi u. Xurjunlari bilan kelgan ikkita kubalik esa ularni kema kayutasiga irg‘itdi-da, bort ustiga bir amallab chiqib oldi.

- Keta qolaylik, – shoshiltirdi littasi. Bahaybat biri esa quroli bilan orqasiga turtdi.
- Bo‘la qol, Kapi, – tipirchilardi u. – Qani, ketdik!
- O‘pkangni bos! – dedi Garri unga. – Yana ba’zi yerlarni mo‘ljalga olib chiq.
- Manavi arqonlaringni qirq, – o‘shqirdi bahaybat bezori. – Senga aytyapman! – baqirdi u Albertga qarab.

— Bir daqqa sabr qil, Garri, — dedi Albert. — Qayiqni yurgiza ko'rma. Bular bank talonchilar.

Eng savlatli kublik o'girilib, Tompson qurolini dast ko'tarib oldi-da, uni Albertga qarab o'qtaldi.

— Hey, unday qila ko'rma! Yo'q! — Albert dodlay boshladi. — Yo'q!

Zarba uning ko'kragiga shunchalik qattiq tushdiki, o'qlar uch martalab tovush chiqarib otilganday bo'lди. Albert tizzalari bukilib, ko'zлari katta-katta ochilib, yerga sirpanib tushdi. U hamon „Yo'q! Yo'q!“ deb dodlayotgan-ga o'xshardi.

— Senga hech qanday o'rtoqning keragi bo'lmaydi, — bahaybat kublik safsata sotardi. — Sen cho'loq qo'lli o'g'il bolasan. So'ngra ispanchalab: — Anavi arqonlarni mana bu pichoq bilan qirqib tashla, — deb buyurdi. So'ng ingliz tilida: — Bo'la qol endi. Qani, ketdik, — deb qistalang qildi.

Shundan keyin yana ispanchalab: — Uning orqasiga qurolni tirang! Inglizchalab esa: — Bo'l deyapman. Qani ketdik. Bo'lmasa manglayingdan darcha ochib qo'yaman! — deya dag'dag'a qila ketdi.

— Ketamiz, — dedi Garri. Bir hindubashara kublik esa uning cho'loq qo'li oldida pistoletini o'qtalib turardi. Qurolning uchi qo'lga deyarli tegay deb qolgandi.

Garri qayiqni o'rnidan siljitib, sog' qo'li bilan rul chambaragini aylantirar ekan, ehtiyoj yuzasidan atrofni kuzatdi, shu lahzada tizzalari bukilib, boshi esa kema-ning yon tomoniga tiralib yotgan Albertga ko'zi tushdi. Dok ustida bo'lsa „Ford“ taksi va shiminining to'piq atrofi yelviragan, qo'llarini boshi uzra ko'targan, og'zini xuddi Albertday ochgancha ich kiyimlarida shumshayib turgan semiz haydovchi qolgandi. Ko'chada hamon zog' uchmasdi.

Qayiq ko'rfazni tark etishi bilan dokning gumbazlari-da ko'zdan g'oyib bo'ldi, shundan so'ng Garri kemasini dok maydoni yonidan olib o'tib, oqim ichiga kirib oldi.

— Qani, bo'la qol, — shoshiltirardi bahaybat kubalik. — Tezroq!

— Manavi qurolingni nari ol, — jerkib berdi Garri. U shunday deb o'ylardi: — Qayiqni Krofish bari tomon suzdirib ketsam bo'ladi, biroq mana bu la'nati kubalik o'sha zahotiyoy meni otib tashlaydi.

— Qayiqni tezlatsang-chi, — bahaybat kubalik timmay qistardi. So'ngra ispanchalab: — Hamma yerga yotib olsin. Kapitanni qurshab olaylik, — deb buyurdi. Uning o'zi birinchi bo'lib Albertni kayutaning ichiga sudrab tushdi-da, kema quyrug'iga yotib oldi. Qolgan uchtasi bo'lsa kayuta ichida g'ujanak bo'lib yotib olishdi. Garri boshqaruvchi o'rnida o'tirardi. U qayiqni haydab ketar ekan, bir ko'zi oqimda edi, hozirgina yam-yashil bo'lib miltillagancha bortda suzib yurgan yaxtalar bilan to'la gavjum ost bazaran o'tib, to'lqinqaytargichdan nari ketdi, keyin esa ko'rfazdan o'tdi, qizil to'lqinqaytargichdan o'tib, ortga nazar soldi. Bahaybat kubalik cho'ntagidan quollarning yashil qutichasini olib, o'qdonlarini to'ldirayotgandi. Quroli oldida turar, o'zi esa quronga qaramasdan o'qdonlarni to'ldirish bilan ovora edi, quyruq ustida orqaga qaragancha turli hislarga berilib o'tirardi. Garrini qo'riqlayotgan bitta kubalikdan boshqa hammaning ko'zi olislarga termilardi. Ikkita hindubasharadan biri Garriga pistoleti bilan imo qilib tepani ko'rsatdi. Ularning ortidan hech qanday qayiq quvib kelmayotgan edi, qayiq motori bir tekis ishlar va ular oqim ixtiyorida asta suzib borardi. Garri gir-gir aylanayotgan oqim bilan ketar ekan, buy dengiz yo'nalishini tik nishablikda ko'rsatganini payqadi.

Bizni tutib oladigan ikki nafar paroxod bor, deb o'ylardi Garri. Bittasi Matyakumbedan pochta tashuvchi Rayniki. Yana bittasi qani? Men uni bir-ikki kun avval Ed Taylor yo'lida ko'rgandim. O'ylashimcha, o'sha qayiq Bilips ijaraga olgan qayiq edi. Tag'in ikkitasi bor edi, deya eslab qoldi u. Bittasi Davlat Yo'l Departamentiniki – o'zlariga kerak. Boshqalari esa Garrison Baytda yashirinib yotibdi. Biz hozir qanchalik olislab ketdik? Garri uzoqda qad rostlab turgan qal'aga, u yerdan ko'zga tashlanayotgan eski pochta binosiga va endilikda shaharchaning qisqa ko'lankasi sifatida hukmronlik qilayotgan sariq mehmonxona binosiga nazar tashladi. Qal'a ichida g'or bor edi, ulkan qishki mehmonxona tomon bir safga tizilib turgan uylar ustida esa mayoq ko'zga chalinardi. To'rt milcha uzoqlab ketdik, shekilli, deb chamaladi Garri. Bu yerga qayiqlar keladi, deb umid qilardi u. Bir juft oppoq baliq ovlaydigan qayiq to'lqinqaytargich atrofida suzib yurar, ular bir tekis harakatlanishardi. Ular 10 uzel tezlik bilan yetib kelolmaydi. Ming afsus...

Kubaliklar haliyam ispanchalab vaysashardi.

- Qancha tezlikda ketyapsan, Kapi? – so'radi bahaybat barzangi quyruqdan orqasiga o'girilib.
- Taxminan 12 uzelda, – javob berdi Garri.
- Anavi qayiqlar qancha tezlikda suza oladi?
- 10 uzelda bo'lsa kerak.

Endi ularning barchasi, hatto Garrini qurshab turishi ko'zda tutilgan boyagi gumashtasi ham qayiqlarni kuzata boshladi. Qo'limdan nimayam kelardi deb o'yab, Garrining ichini it tatalardi. Hech narsaning uddasidan chiqolmayman.

Ikkala oq qayiq u qadar katta emasdi.

- Anavi tomonga qara-chi, Roberto! – dedi birdan biyron so'zlaydigan bittasi.

– Qayerga?

– Qaragin!

Arang ko'zga tashlanadigan olislikda suv ichidan kichkina bir tumshuq ko'tarilib chiqqancha suzib kelardi.

– Ular bizga o'q uzyapti, – dedi bittasi. – G'irt axmoqlik.

– Xudo haqi, axmoqlik, – mammuniyat bilan ma'qulla-di bahaybati. – Axir biz uch mil uzoqdamiz-ku.

– To'rt mil, – o'yladi Garri, ichidan zil ketib. – Bor-yo'g'i to'rt mil olisda.

U tinch suv yuzasi uzra ko'tarilgan jajjigina qayiq-chalarni ko'rib turar, lekin uning ovozi qulog'iga chalin-mayotgandi.

– Bu konchilar o'lguday sho'rlik odamlar-da, – deb o'ylardi u. – Aqldan ozib, kulgiga qolishyapti.

– U yoqdagi qanday qayiq, Kapi? – so'radi bahaybat bezori quyruqdan uzoqlarga tikilib qararkan.

– Sohil bojxonasiniki.

– U qancha tezlikda suza oladi?

– Menimcha, 12 uzelda.

– U holda biz yaxshi ketayotgan bo'lamiz.

Garri churq etmadi. Uning chap tomonida Send Keyning keng minorasi qad rostlab turar, Send Keyning kichik sayozliklari o'ng bort tomondan kema tarafga de-yarli ko'zga aniq tashlanardi. Oshig'i bilan ular o'n daqiqa ichida rifdan o'tib ketishadi.

– Senga nima bo'ldi? Tilingni yutib yubordingmi?

– Menden nimani so'rading?

– Endi bizga xavf soladigan ta'qib qolmadimi?

– Sohil bojxonasining samolyoti bor, – deb ogohlan-tirdi Garri.

– Shaharchaga kelishimizdan avval telefon simini uzib qo'yganmiz.

- Butunlay uzib qo‘ymagandirsiz, yo butunlay uzdingizmi? – so‘radi Garri.
- Samolyotni bu yerga keladi deb o‘ylaysanmi?
- Qorong‘i tushguncha Xudodan omad tilab o‘tir, – piching qildi Garri.
- Nimaga xayol surib qolding, Kapi? – so‘radi bahaybat Roberto.
- Garri javob bermadi.
- Ayta qolsang-chi, nimani o‘ylayapsan?
- Menga qara, agar rostdanam erkak bo‘lsang, nima sababdan o‘rtog‘imni o‘ldirding, a? – Garri yonida kompas yo‘nalishini kuzatib turgan yoqimli so‘zlovchi kubalikka qarab so‘z qotdi.
- Og‘zingni yum, – po‘pisa qildi Roberto. – Bo‘lmasa seniyam o‘ldiraman.
- Qancha pul o‘mardinglar? – so‘radi Garri yoqimli gapiruvchidan.
- Bilmaymiz. Hali sanab ko‘rganimiz yo‘q. Baribir pul bizga atalgan emas.
- Menimcha esa bunday emas, – deb qo‘ydi Garri. U endi mayoqdan o‘tib ketarkan, Gavana oqimining doimiy yo‘nalishi uchun 225° tezlikka qo‘ydi.
- Men pulni faqat o‘zimizga deb olmaganimizni nazarda tutgandim. Bu pul inqilob tashkiloti uchun.
- O‘rtog‘imni ham inqilob deb o‘ldirdinglarmi?
- Juda taassufdaman, – achindi bola. – Bundan qanchalik jonim og‘riyotganini senga qay til bilan aytay?
- Yasamalik qilma, – achchiqlandi Garri.
- Ko‘ryapsanmi, – dedi bola ohista so‘z boshlarkan.
- Mana bu Roberto yomon odam. O‘zi yaxshi inqilobchi, ammo yomon odam. Kuba prezidenti bo‘lgan Xerardo Magado davrida shunchalik ko‘p odam o‘ldirardiki, bu

ishidan zavq olardi. Roberto o'ldirishni mazali ish deb biliardi. Albatta, jo'yali bir sabab bilan o'ldirardi. Eng a'llo sabab bilan. U quyruqdagi kursilarda o'tirgancha, Tompson qurolini tizzasi ustiga qo'yib olib, endi kichrayib borayotgan, Garri ko'rgan boyagi oppoq qayiqlarni kuzatib o'tirgan Robertoga ko'z tashladi.

— Ichishga nimang bor? — Roberto quyruq tomondan baqirib so'radi.

— Hech narsa, — javob berdi Garri.

— Unday bo'lsa o'zimnikidan ichaman, — dedi Roberto. Qolgan kubaliklardan biri gaz sisternalari ustiga o'rnatilgan o'rindiq ustiga cho'zilib olgandi. U o'zini behuzur sezayotgandi. Qolganlarining ham behuzur bo'lgani yaq-qol bilinib turar, lekin ular hamon tik turishardi.

Garri orqasiga nazar tashlab, ko'rfazdan ikkala oq qayiq bilan izma-iz yana qo'rgoshin rangli bir qayiq ham kelayotganini ko'rdi.

— Sohil bojxonasining qayig'i, — o'yladi u. — Lekin buning ham foydasi yo'q.

— Dengiz samolyotini keladi, deb o'ylaysanmi? — savolini takrorladi yoqimli so'zlovchi bola.

— Bir yarim soatdan keyin qorong'i tushadi, — Garri uni xotirjam qildi. U boshqaruvchi o'rindig'iga joylashtib olgandi. — Nimani rejalashtiryapsizlar? Meni o'ldirishnimi?

— Menga qolsa istamayman, — dedi bola. — O'ldirishdan naf yo'q.

— Sen nima qilyapsan o'zi? — qo'lida ellik gramm viskini ushlab o'tirgan Roberto savol tashladi. — Kapitan bilan do'st tutinmoqchimisan? Nima qilmoqchisan? Kaptanimiz bilan bitta dasturxonda ovqat yeishnimi?

— Rul chambarini ol, — Garri bolaga g'ildirakni topshirdi. — Yo'nalishni ko'ryapsanmi? Ikkita yigirma besh.

Garri o'tirgan yerida qaddini rostladi-da, quyruq tomon ketdi.

— Mengayam ichishdan uzat, — Garri Robertoga xitob qildi.

— Huv anavi tarafda sohil bojxonasining qayig'i suzib yuribdi, lekin u bizga yetolmaydi.

U endi o'zini go'yo mamnun qiyofada tutib, bor qahrug'azabini ichiga yutgancha reja tuza boshlagandi.

— Bo'lmasam-chi, — kerilib dedi Roberto. — U qayiq bizga yetolmaydi. Anavi behuzur chaqaloqlarga qarang. Nima deganding? Ichishnimi? Yana boshqa tilaklaring bormi, qani, eshitib qo'yaylik?

— Hazilkash ekansan, — deb qo'ydi Garri. U nafas olmay uzoq ichdi.

— Bunchalik ko'p ichib qo'yma! — Roberto norozi bo'ldi. — Bori shu o'zi.

— Mendayam ozroq bor,— tinchlantirdi uni Garri. — Boya senga shunchaki hazillashgandim.

— Men bilan o'ynashma, — Roberto shubhali qarab qo'ydi.

— Nega unday deysan?

— Qanaqa ichimlik olgansan?

— Bakardi.

— Olib chiq.

— Shoshirmsang-chi, — dedi Garri. — Nega bunchalik sabrsiz bo'lib qolding-a?

Garri oldinga ketar ekan, Albertning jasadi ustidan sakrab o'tdi.

U rul g'ildiragi oldiga kelib, kompasga nazar soldi. Bola tezlikni, taxminan, yigirma besh darajada olib borar, kompas siferblati esa tebranib turardi. U dengizchi emas, deb o'yladi Garri. Bu esa menga yana-da qo'proq imkon

beradi. Manavi suv sathida hosil bo‘lgan to‘lqinsimon izga qarang.

Endi uzoqlashib borayotgan chiroq tomon ikkita pufaksimon egri chiziq orasida paydo bo‘lgan to‘lqinsimon iz ufq uzra jigarrang, konussimon va ingichga panjara o‘rnatilganday aks etardi. U shaharchaning elektrsiz minoralaridagi mavhumlikni ko‘rib turardi. Qayiq motorlari bir tekisda ishlab turibdi. Garri pastga boshini suqdi-da, Bakardi shishalaridan biriga qo‘l uzatdi. Uni quyruqqa olib chiqdi. Ichimlikdan otib bo‘lgach, shishani Robertoga uzatdi. Joyida turgancha Albertga qarab, ich-ichidan og‘riq keldi. Bechora och polapon, deb achindi u.

– Nima bo‘ldi? Undan qo‘rqib ketyapsanmi? – semiz kubalik birdan so‘rab qoldi.

– Uni tashlab yuborsak nima deysan? – so‘radi Garri ham. – Uni olib ketishdan ma’no yo‘q endi.

– Yaxshi, – rozi bo‘ldi Roberto. – Kallang ishlay boshlabdi.

– Uni qo‘llari tagidan ko‘tar, – o‘rgatdi Garri. – Men esa oyoqlaridan olaman. Roberto keng quyruq ustiga Tompson qurolini qo‘ydi-da, murdani yelkalaridan ko‘tardi.

– Bilasanmi, dunyodagi eng og‘ir yuk bu o‘likning tanasi, – deb qo‘ydi u. – Avvallari hech o‘lik ko‘targanmisan, Kapi?

– Yo‘q, – javob berdi Garri. – Sen-chi, hech semiz o‘lik ayolni ko‘tarib ko‘rganmisan?

Roberto javob berish o‘rniga murdani quyruq ustidan torta boshladgi.

– Qo‘pol yigit ekansan, – dedi u nihoyat. – Ichishga nima deysan?

– Bajon-u dil, – rozi bo‘ldi Garri.

— Ishonasanmi, uni o'ldirganim uchun oldingda aybdorman, — so'zlay boshladi Roberto. — Seni o'ldirgan paytim bundan-da yomonroq ahvolga tushsam kerak.

— Bu usulda gapirishni bas qil, — jerkib tashladi Garri. — Bunday gapirishdan maqsading nima?

— Bo'la, qol, — shoshiltirdi Roberto. — Uni tashlab yubora qolaylik.

Ular egilib, murdani quyruq uzra sirpantirib, suvga tashlaganlari zahoti Garri kemaning chetidagi qurolni ham tepib yubordi. Qurol Albert suvga tushgan vaqt bilan bir paytda suvga tushdi, biroq Albert cho'kishdan avval par Rakning oppoq ko'pirgan orqa qismida ikki marta aylanib ketdi, qurol esa to'ppa-to'g'ri suv tubiga qarab ketdi.

— Zo'r ish bo'ldi, a? — murdani daf qilganidan ko'ngli joyiga tushdi Robertoning. — Uni saranjomlab qo'ya qoldik. So'ngra u qurolining qo'ygan yerida yo'qligini ko'rishi bilanoq talvasaga tushib qoldi. — Qurol qani? Uni nima qilding?

— Niman?

— Amertralladora! — hayajon ichida ispancha so'z tiliga keldi.

— Nima?

— Sen uning qayerdaligini bilasan.

— Men qurol-purolni ko'rganim yo'q.

— Sen uni kemaning quyrug'idan o'g'irlab olgansan.

Mana endi seni o'ldirmasam bo'lmaydi.

— O'zingni bos, — tinchlantirdi uni Garri. — Nima jin urib meni o'ldirishga qasd qilib qolding?

— Menga qurol ber, — Roberto behuzur bo'lib yotgan kubaliklardan biriga ispanchalab amr qildi. — Darhol men-ga qurol ber!

Garri turgan joyida, o'zini bunchalar uzun, bunchalar tarvaqaylagan holda his qilmagandi, qo'ltiqlari ostidan

shuvullab ter oqar, endi yonboshlaridan ham oqib tushayotgan edi.

— Juda ko‘p qon to‘kyapsan, — Garrining qulog‘iga behuzur bo‘layotgan kubalikning ispanchalab aytgan gapi chalindi.

— Sen uning do‘sini gumdon qilding. Endi esa Kapning o‘zini-da o‘ldirmoqchi bo‘lib turibsan. Sohilga bizni kim yetkazib qo‘yadi?

— Kapitanga tegma, — gapga aralashdi yana biri. — Yetib olganimizdan keyin o‘ldirsang o‘ldiraver.

— U bort ustida qurolimni o‘g‘irlab oldi, — g‘azab bilan dedi Roberto.

— Bizning pulimiz bor. Qurolni hozir nima qilasan? Kubada ular to‘lib yotibdi-ku.

— Senga aytyapman, agar ayni paytda uni gumdon qilmasak, katta xatoga yo‘l qo‘ygan bo‘lamiz deyapman senga. Menga qurol ber.

— Hey, ovozingni o‘chirsang-chi! Sen mastsan. Hadeb ichaversang, qonsirab qolasan.

— Ichib ol, — dedi Garri suvgaga tegay-tegay deb turgan dumaloq gulxanday qizil quyoshga Gulf-Strimning kulrang mavjlari uzra termilarkan.

— Buni qaragin-a. Qayiq shu yo‘lda ketaversa, u yana och yashil tusga o‘zgaradi.

— Jin ursin buni, — semiz kubalik haliyam g‘azabidan tushmagandi. — Jazosiz qutulib qolaman deb o‘ylayapsanmi?

— Men senga boshqa qurol beraman, — va’da berdi Garri. — Ular Kubada atigi qirq besh dollar turadi. Tashvish qilaverma. Endi xavfdan xolisiz. Ayni damda birortayam sohil bojxonasining samolyoti yetib kelolmaydi.

— Men sening joningni sug‘urib olaman, — Roberto

unga ko'z yogurtirdi. – Sen buni jo'rttaga qilgansan. Murdani shuning uchun ham menga ko'tarturgansan.

– Meni o'ldirish qo'lingdan kelmaydi, – dedi Garri. – Kim sizlarni manzilingizga olib borib qo'yadi?

– Hozirning o'zidayoq seni bir yoqlik qilishim kerak.

– O'zingni bos, – bosiqlik bilan so'zлади Garri. – Borib, motorlarga qarab kelay.

U tuynukni ohib, kayuta ichiga tushdi, ikkita yog'-go'sht qutilari ustidagi moy piyolalarini chetga oldi-da, motorlarni tekshirdi va Tompson quroliga qo'l cho'zdi. Hozir emas, deb o'yladi u. Yo'q, yaxshisi, keyin bo'lgani ma'qul. Eh, Xudo, uning omadi bor ekan. Jin ursin, Albertning o'ligini saqlab o'tirishning nima foydasи bor edi? Kampirini ham ko'mish muammosidan asrab qoldi. Anavi semiz to'nka-chi! Odamxo'r qotil! Ey Xudo, hozirning o'zidayoq uni jahannamga jo'natgan bo'lardim. Biroq kutishim kerak.

Garri qaddini rostlab, yuqoriga chiqdi-da, tuynukni berkitdi.

– O'zingga kelib qoldingmi? – dedi u Robertoga. Garri qo'lini uning semiz yelkalari ustiga qo'ydi. Badqovoq kubalik unga bir qarab qo'ydi-yu, indamadi.

– Suvning yashil tusga kirganini payqadingmi? – so'radi Garri.

– Ming la'nat senga! – o'shqirdi Roberto. U mast bo'lib qolgan, biroq qandaydir falokat bostirib kelayotganidan shubhalanib o'tirardi.

– Rulni birpasga menga bera qol, – g'ildirakda turgan bolaga taklif qildi Garri. – Isming nimaydi?

– Meni Emilio deb chaqiravering, – javob berdi bola.

– Pastga tushib, yeydigan biron nima topib, qorningni to'yg'azib ol, – dedi Garri unga. – U yerda non va mol go'shti bor. Iotasang, qahva ham damlab ol.

– Hech narsa yegim yo‘q.

– Keyinroq o‘zim tayyorlab beraman, – so‘z berdi Garri. U rul chambaragi oldida o‘tirarkan, tunda suv uzra shamol olib kelayotgan to‘lqinlarni tomosha qilib turardi. U kema chiroqlarini yoqmagandi.

Suzib o‘tish uchun ajoyib kecha bo‘ladi, Garrining xayolidan kechdi, judayam farahli kecha. Kechki shafaq batamom o‘chishi bilan kemani asta-sekin sharq tomon-ga buraman. Agar shunday qilmasam, bir soatga bormay Gavana shu’lasi ostida ko‘rinib qolamiz. Boringki, ikki soat ichida. Tez orada u o‘sha shu’lani ko‘rishi bilanoq anavi kalondimog‘ kubalikning jonini oladi. Qurolini gumdon qilgani zo‘r bo‘ldi-da. Ko‘z tegmasin, chinakam omad kulib boqdi-da o‘ziyam. Qiziq, Mariya ayni daqiqada kechlikka nima hozirlayotganikin. Bilib turibman, u o‘lguday xavotir olib o‘tiribdi. Tomog‘idan bir luqma ham ovqat o‘tmayapti. Qiziq, bu qalloblar qancha pul o‘marishgan ekan. Kulgilisi, ular pulni hali sanab chiqishmapti ham. Bu pulni o‘marishganini inqilobga yo‘yib, o‘zlaricha yo‘l qilishganiga o‘laymi. Kubaliklar Xudo urgan xalq bo‘ladi-da.

Anavi Roberto ablah odam ekan. Shu tundayoq uni narigi dunyoga jo‘nataman. Keyin nima bo‘lishi bilan ishim yo‘q, lekin shu kecha uni o‘ldiraman. Uni yo‘q qilgan taqdirimdayam baribir sho‘rlik Albert tirilib kelmaydi. Uni suvga tashlab yuborayotganimizda ichim biram og‘ridiki. Nega uni suvga tashlab yuborish xayolimga kelib qoldi, o‘zim ham bilmayman.

Garri sigarasini tutatdi-da, zulmat qo‘ynida cheka boshladi.

Men to‘g‘ri ish qilyapman, Garri xayolining cheki yo‘q edi. Kutganimdan ham ko‘ra a‘lo bajaryapman. Anavi bola binoyidek ekan. Qolgan ikkitasini ham bir

yoqli qilishni istayman. Ularni birga tinchitishning qandaydir yo‘li bor, deb umid qilaman. Nima qilib bo‘lsayam, bor mahoratimni ishga solib, maqsadimga erishaman. Barchasini birvarakayiga yer tishlatsamgina xotirjam nafas olaman. Ishim qancha silliq bitsa, shuncha yaxshi. •

- Sendvich yeysizmi? – so‘radi bola.
- Rahmat, – minnatdorchilik bildirdi Garri. – Bittasini sherigingga bermaysanmi?
- U ichib o‘tiribdi. Yemaydi, – javob berdi bola.
- Qolganlari-chi?
- Ularning mazalari yo‘q, – izoh berdi bola.
- Ajoyib kecha bo‘lyapti-da, – dedi Garri zavqlanib. U bolaning kompasga e’tibor bermayotganini sezdi-da, indamay kemani sharq tomon qo‘yib berdi.
- Men ham maza qilib ketyapman, – gapini quvvatladi bola ham. – Lekin o‘rtog‘ingizning yo‘qligi yomon bo‘ldi-da.
- U yaxshi do‘s edi, – achindi Garri. – Bankda yana kimdir jarohat oldimi?
  - Ha, boyagi huquqshunos. Ismi Simons edimi?
  - O‘ldimi?
  - Shunaqa bo‘lsa kerak.
  - Buni qarang-a, – ko‘nglidan o‘tkazdi Garri. – Janob Bilips. Qanday baloni kutgan edi-ya? Bu g‘alvadan qanday qilib omon chiqib ketaman, deb ishondi ekan? Bezorilar bilan o‘ynashsang shunaqa bo‘ladi. Rosayam aqllilashib ketgan bo‘lsang ham, baribir oxiri shu tarzda tugaydi. Janob Bilips. Alvido, janob Bilips.
  - U o‘ldirishlarigacha olib boradigan nima ish qildi o‘zi?
    - O‘zingiz fahmlarsiz deb o‘ylayman, – javob berdi bola. – Ushbu qotillik og‘ayningizning o‘limidan

butunlay farq qiladi. Eslasam, yuragim yomon bo‘lib ketadi. Bilasiz, u hech bir qing‘ir ishni ko‘zlamagan-di. Bu shunchaki inqilob davrining unga o‘qigan hukmi bo‘ldi.

– Nima bo‘lgandayam, u yaxshi inson edi, deb o‘yay-man, – o‘zicha qayg‘urgan bo‘ldi Garri, dilidan esa shu xayollar o‘tardi: Og‘zimdan chiqqan gapni eshiting-a. Ming la’nat, og‘iz ham har narsani aljirayverarkan-da. Ammo mana shu bola bilan har ehtimolga qarshi do‘s-tlashib olsam yomon bo‘lmasdi...

– Hozirgi kunlarda qanday inqilob haqida o‘yayapsiz-lar? – so‘radi Garri undan.

– Biz faqat haqiqatgo‘y inqilob jamoasimiz, – dedi bola. – Biz barcha eski siyosatchilardan, bizni bo‘g‘ib o‘ldirayotgan bor Amerika mustamlakalaridan, armiya-ning zulmidan xalos bo‘lishni istaymiz. Bir boshidan pokiza turmush boshlab, har bir odamga imkoniyat ber-moqchimiz. Guajiroarning, bilasiz, dehqonlar qulchiligi-ga barham berishni hamda ulkan shakar mulkini u yerda ishlayotgan odamlar o‘rtasida teng taqsimlashni istaymiz. Ammo biz kommunistlar emasmiz.

Garri kompasdan ko‘zini uzib, bolaga qaradi.

– Qanday ishlarni amalga oshiryapsizlar?

– Urush chiqishi uchun pulni oshirib qo‘ydik, – dedi bunga javoban bola. – Qo‘limizdan keladigani – keyinroq bir tiyinlik foyda ko‘rmaydigan vositalarimizni ishga solishdir. Yana, keyinchalik ish bilan ta’milana olmaydigan odamlarimizdan foydalanib qolish. Lekin yakun nima bilan tugashi e’tiborga molik. Odamlarimiz teng yashashlari kerak.

U radikal, deb qaror chiqardi Garri. Bola xuddi o‘ziga o‘xshagan radikal ekan.

— Asosli loyiha tuzgansizlar deb o‘yayman, — deb qo‘ydi Garri. — Ishlayotgan kishiga ko‘mak bermoqchi ekansizlar. Ilgarilari men ham ko‘p martalab Key Uestda sigara fabrikasida ish tashlashda qatnashganman.

— Bir dunyo odam bizga yordam qo‘lini cho‘zgan, — davom etdi bola. — Lekin ayni kunlardagi davlat harakati tufayli biz odamlarga ishonolmaymiz. Men hozirgi davr muhtojligidan juda ham afsusdaman. Terrorizmdan nafratlanaman. Zarur pulning ko‘tarilish usullari borasida o‘yayman. Biroq boshqa yo‘l yo‘q. Kubada holat qanchalar yomonligini bilmaysiz.

— Ahvolning o‘ta yomonligidan xabarim bor, — deb javob berdi Garri.

— Vaziyat qanchalar murakkabligini anglay olmay-siz. Mamlakatning kichik bir qishlog‘ida ham zulm avj olib bormoqda. Uchta odam bitta ko‘chada birga turolmaydi. Kubaning chet eldan dushmanlari yo‘q, u hech qanday armiyaga muhtoj ham emas, ammo endilikda uning yigirma besh mingli, millatning qonini so‘radi-gan zabitlardan tashkil topgan armiyasi bor. Hammasi, hatto shaxsiy askarlargacha boylik to‘plash jazavasida o‘rtanishmoqda. Hozir ular muttaham, qallob va Makado zamonidagi josuslar tomonidan tashkil qilingan harbiy zaxiralarga ham ega, yana ular bu armiyalariga xalal bermaydigan har qanday odamni olaverishadi. Biror falokat boshlanmasidan avval bunday armiyadan qutu-lishimiz lozim. Ilgari bizni to‘garaklar boshqarardi. Endi bo‘lsa boshimiz ustida miltiqlar hamda miltiq nayzalari jaranglab turibdi.

— Buni eshitish og‘ir, — kemani sharq tomon bosh-qarishda davom etarkan, Garri mulohazasini bildirib qo‘ydi.

— Nechog‘lik og‘irligini tushunib yetolmaysiz ham, — so‘zlardি bola. — Men xalqimni sevaman va uni zulmdan ozod qilish uchun har narsaga, har narsaga tayyorman. Nafratlanadigan ishlarni bajaryapman. Lekin bundan-da ming bor jirkanch ishlar qilganman.

Ichgim kelyapti, deb o‘ylardi Garri. Uning inqilobi-ga qay go‘rdanam qiziqib qoldim. Kubaliklarning milliy g‘ururi qursin. Ularning inqilobi mehnatkash xalqqa ko‘mak berish uchun bankni talon-toroj qilib, sheriklarini gumdon qilish va nihoyat umrida birovga ziyoni tegmagan sho‘ring qurg‘ur Albertni o‘ldirishdan iborat ekan-da. Mana ular boshiga yetayotgan mehnatkash xalq. Bu bola bunday narsalarni xayoliga ham keltirma-gani ravshan bo‘ldi. Butun guruhi bilan. Mana, Kubani boshqarayotgan kubaliklarning holi. Barchasi ikki mar-tabal bir-birlari bilan qirpichoq bo‘lishdi. Bir-birlarini sotishadi. Erishganlarini yo‘qqa chiqarishadi. Ularning inqilobiga ming la’nat! Mening bor maqsadim esa oilam uchun tirikchilik qilish edi, lekin endi bu maqsadimni ro‘yobga chiqarolmaydiganga o‘xshayman. U bo‘lsa qayoqdagi inqilobidan jar soladi-ya. Xudo ursin o‘sha inqilobini!

— Ha, holatingiz chindanam xarob bo‘lsa kerak, — deb qo‘ydi u bolaga. — Bir daqiqaga rulni boshqarib tura ola-sanmi? Men biror nima ichib kelay.

— Albatta, — rozi bo‘ldi bola. — Qanday boshqaray?

— Ikkita yigirma beshtada, — deb tushuntirdi Garri.

Ayni chog‘da qorong‘i tushgan, Gulf-Strimdan uzoqlardagi suv yuzasi mavjlanib ko‘zga tashlanardi. Garri o‘rindiqlarda cho‘zilib yotgan kubaliklar yonidan o‘tdida, kemaning quyruq tomoniga yo‘naldi. Qorong‘ida suv go‘yo kema bilan poyga olib borayotganday edi.

Roberto baliq tutuvchi stul ustiga oyoqlarini qo'yib olgandi.

— Ichkiligingdan jindak olsam maylimi? — iltimos qildi Garri undan.

— Yo'qol bu yerdan, — badqovoq erkak xirillagan tovushda o'shqirib berdi. — Bular meniki.

— Yaxshi, — dedi Garri va boshqa joydan olgani oldingga qarab ketdi. Pastda, zulmat qa'rida, o'ng qo'li shalviragan yengi ostidagi shishaning Fredi mahkamlab bergen tiqinini sug'urdi-da, qultullatib icha boshladi.

Mana endi vaqt bo'ldi, dedi Garri o'ziga o'zi. Endi kutishning keragi yo'q. Bolakay aytadiganini aytib bo'lди. Anavi badqovoq maxluq bo'lsa mast, qolgan ikkitasining ham mazasi qochgan. Bundan-da qulay payt bo'lmaydi.

Garri boshqa ichimlik oldi, Bakardi tanasini qizdirib, ancha yordam berganday bo'ldi, biroq qornida haliyam sovuq bir muzlikni his qilib turardi. Uning a'zoyi badani muzlab qolgandi.

— Ichimlik ketadimi? — so'radi u ruldagi boladan.

— Yo'q, rahmat, — rad etdi bola. — Men ichmayman. Garri kema chirog'i ostida uning jilmayganini payqadi. U rostdanam yoqimtoy bola ekan.

— Menga bir shisha kifoya, — dedi Garri. U katta bir shishadan qultullatib ichdi, lekin endi qornidan butun ko'ksiga yoyilib kelgan muzday zaxni ilita olmadi. Garri shishani kayuta poliga qo'ydi.

— Kemani shu yo'nalishda tut, — uqtirdi u bolaga. — Men borib motorlarni qarab kelay.

Garri tuynukni ochib, pastga tushdi. So'ngra pol ichidagi teshikka o'rnatilgan uzun ilgak bilan tuynukni qulf-ladi. U motorlar ustiga kelarkan, bir qo'li bilan suv quvurini, silindrлarni ushlab ko'rди va qo'lini qutilar ustiga

qo'ydi. U moyli murvatlarni burab, har birini salqi qilib mahkamladi. Esankirashni bas qil, deb koyidi Garri o'zini. Bo'l endi, esankirashni to'xtat. Oldingi jasoratim qayerda qoldi? Bilishimcha, iyaklarining ostida.

Garri tuynukdan tashqariga ko'z yogurtirdi. U mazasi qochgan erkaklar yotgan gaz sisternalari ustidagi ikkala o'rindiqqa deyarli tegay-tegay deb turgandi. Bola esa unga orqasini o'girib olgancha baland taburetkada o'tirar, tumshuq chiroqlarida sharpasi aniq-tiniq ko'rinish turardi. Garri ortiga o'girilib, kema quyrug'idagi stulda yoyilib o'tirgan, qorong'i suv uzra kontur suratday aks etib turgan Robertoni ko'rdi.

Yigirma bir raqamli quroolidagi to'rtta o'qdon eng ko'pi bilan besh marta o'q uzishga yetadi, deb chamaladi u. Barmoqlarimni yengil harakatlantirishim kerak. Juda soz. Bo'la qol. Qilishing zarur bo'lgan ishni kechiktirma, qo'rroq! Xudoym, tag'in ichib olsam bo'lar ekan. Lekin bir qultum ham ichkilik qolmadi.

Garri chap qo'lini ko'tarib, tepaga cho'zildi-da, qurol tasmasini bo'shatdi, tepki atrofiga qo'lini qo'yib, bosh barmog'i bilan butunlay xavfsizligini sinagan holda bosib ko'rdi va qurolni tashqariga chiqardi. Motor chuqurligi ichida cho'k tushib o'tirarkan, tumshuqdan tushgan yorug'lik yordamida ko'rinish turgan bolaning boshi orqasini diqqat bilan kuzatib chiqdi.

Qurol qorong'ilik ichida ulkan alanga chiqardi va snaryadlar ko'tarilgan tuynuk va motorning ustidan qarshi tomonga qarab o't ochila boshladi. Bola taburetkadan yiqilib, pastga tushishidan oldin o'girilib, chap tomonadagi karavot ustidagi gavdalarga ham o'q uzdi, o'shalarning deyarli ro'parasida siltanib, alanga chiqargan qurolni tutib turarkan, shu qadar yaqinligidan, Garrining dimog'iga erkaklar paltosining kuyindi hidi kelib urildi;

boshqa karavotda joyidan sapchib turib, kuch bilan pistoletiga yopishgan narigi erkakka qarata o‘q otdi. Shundan keyin Garri pastga emaklab tushdi-da, quyruq tarafga qaradi. Badqovoq g‘oyib bo‘lgandi. U faqat g‘ira-shira ko‘zga chalinib turgan ikkita stulnigina payqadi. Orqasida esa hamon bolaning o‘lik tanasi yotardi. Uning o‘lganiga shak-shubha yo‘q edi. Karavotdagi erkak esa osilib yotardi. Boshqasi bo‘lsa planshir ustida yuztuban yotardi.

Garri qorong‘ida badqovoqning joyini aniqlashga urinardi. Kema endi doira ichida suzib borar, kayuta bo‘lsa biroz yorishib qolgandi. Garri nafasini rostlab, atrofga ko‘z yogurtirdi. Anavi burchakdagi pol ustiga tushgan kichkinagina soya u bo‘lishi kerak. Garri uni kuzatar ekan, sharpa biroz siljidi. Bu o‘sha edi.

Badqavoq Garriga qarab o‘rmalay boshladi. Yo‘q, u emas ekan, uning qarshisida bortda cho‘zilib yotgan shergi yotardi. Garri qurolini orqalab olgan edi. Garri uning astoydil qimirlashini poylab turdi. Qimirlayotganiga ishonch hosil qilgachgina unga qarab o‘q uzdi. Qurol badqavoqning qo‘llari va tizzalarini yoritdi, quroldan chiqqan alanga tili va bot-botlagan ovoz tingach, u badqovoq qallobning gurs etib yiqliganini eshitdi.

– Sen qanjiqsan, – ijirg‘andi Garri. – Badqovoq qotil, murtad!

Mana endi, Garrining yuragini egallab yotgan bor muzlik aridi va ko‘nglida o‘sha eski mahzun nolani yana bir bor his qilarkan, pastda cho‘kkalagancha quroli ichiga yana bitta o‘qdonni o‘rnatish uchun chorsi shakdag, yog‘och-yashikli gaz sisternasi tagiga o‘tirdi. Garri o‘qdonni ushlab ko‘rmoqchi edi, biroq qo‘li namchil ekan.